

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyul oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 081,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati *	3 081,7	118,9
Guliston sh.	565,1	101,9
Shirin sh.	175,4	113,2
Yangiyer sh.	269,1	111,6
Boyovut	54,5	102,2
Guliston	72,5	109,2
Mirzaobod	699,8	145,1
Oqoltin	52,8	110,3
Sardoba	196,5	239,0
Sayxunobod	71,3	108,2
Sirdaryo	218,4	109,0
Xovos	67,5	102,4

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 34,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 126,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	292,9	263,4	11,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	2,6 m.	122,0	165,3
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 141,4	784,4	122,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	111,3	114,2	124,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	466,0		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	104,0		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 567,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 169,5 % ni va ularning umumiy hajmidagi ulushi 5,4 % ga ko'payib, 18,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,5 % to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ni tashkil etgan holda 2 048,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,1 % ni yoki 466,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati *	567,5	2 048,2	466,0	169,5	113,1	104,0
Guliston sh.	27,9	488,5	48,7	2,4 m.	102,7	71,8
Shirin sh.	131,9	40,4	3,1	127,0	82,6	145,8
Yangiyer sh.	0,0	256,7	12,4	0,0	109,8	171,6
Boyovut	6,1	32,0	16,4	177,0	98,6	94,1
Guliston	25,0	38,7	8,8	5,4 m.	73,9	92,9
Mirzaobod	99,0	592,5	8,3	98,2	158,3	115,9
Oqoltin	5,2	40,4	7,2	63,0	131,2	80,7
Sardoba	126,8	59,3	10,4	43,5 m.	84,2	115,7
Sayxunobod	4,4	58,8	8,1	117,6	110,2	91,4
Sirdaryo	44,6	101,8	72,0	193,9	77,2	160,7
Xovos	14,8	39,5	13,2	150,0	102,7	74,5

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sardoba tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 43,5 m.), Guliston tumanida (5,4 m.) va Guliston shahri (2,4 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 158,3%), Oqoltin tumani (131,2%) va Sayxunobod tumanida (110,2%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

